O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL’A TUMAN KENGASHI QARORI

220400, Tuproqqal’a tumani, Pitnak shahri, Mustaqillik ko’chasi, 1-uy, tel: 30-54-678, faks: 30-53-315

2022 - yil 31 - mart VI-54-55-12-218-K/22 Tuproqqal'a tumani hokimligi

Tuproqqal’a tumani bo‘yicha 2022-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘i stavkalariga hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarning 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdoriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tegishli xatiga, Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2022-yil 28-fevraldagi VI-42-28-12-0-K/22-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan xalq deputatlari Tuproqqal’a tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2022-yil 28-fevraldagi VI-42-28-12-0-K/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mahallalarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdorga 1 gektarga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 1-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 2-ilovaga

muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Tuproqqal’a tuman Kengashining 2021-yil 31-dekabrdagi VI-49-77-12-218-K/21-sonli qarorining 10, 11-bandi va 7, 8, 9-ilovalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin hamda 2022-yil 1-yanvardan yer solig‘i hisobotlari ushbu qarorga asosan qayta hisob-kitob qilinsin.

4. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin.

5.Mazkur qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i S.Sultonov, xalq deputatlari Tuproqqal’a tuman Kengashining “Mahalliy budjetini shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi” raisi I.Qalandarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Salayev**

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tuman
Kengashining
2022 yil 31 martdagi
VI-54-55-12-218-K/22-son qaroriga
1-ilova

Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida **mutlaq miqdoriga 1 gektarga** belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

№	Hudud nomi	Koeffisient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun 1 (bir) gektar uchun so‘mda
Pitnak shaxarchasi			
1	Muxabbat MFY	1,0	20 662 500
2	Saxovat MFY	1,0	20 662 500
3	Navbahor MFY	1,0	20 662 500
4	Yoshlik MFY	1,0	20 662 500
5	Sharlauq MFY	1,0	20 662 500
Tuproqqal’a tumani qishloq hududlari			
6	Obod MFY	0,85	17 563 125
7	Nurobod MFY	0,85	17 563 125
8	Yakkachiqir MFY	0,85	17 563 125
9	Sayapir MFY	0,85	17 563 125
10	Saidlar MFY	0,85	17 563 125
11	Pastom MFY	0,85	17 563 125
12	Yo‘ldosh Oxunboboyev MFY	0,85	17 563 125
13	Shayxlar MFY	0,85	17 563 125
14	Yangi zamin MFY	0,85	17 563 125
Tuproqqal’a tumani olis hududlari			
15	Nukus MFY	0,7	14 463 750
16	Sarimoy QFY	0,7	14 463 750
17	Tuproqqal’a maskani MFY	0,7	14 463 750
18	Hazorasp MFY	0,7	14 463 750

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tuman
Kengashining
2022 yil 31 martdagi
VI-54-55-12-218-K/22-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslarning *(dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlardan tashqari)* yer maydonlari uchun hududlar kesimida **mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun** belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlar

№	Hudud nomi	Koeffisient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun 1 (bir) kv.m uchun so‘mda
Pitnak shaxarchasi			
1	Muxabbat MFY	1,0	159,3
2	Saxovat MFY	1,0	159,3
3	Navbahor MFY	1,0	159,3
4	Yoshlik MFY	1,0	159,3
5	Sharlauq MFY	1,0	159,3
Tuproqqal’a tumani qishloq hududlari			
6	Obod MFY	0,94	149,7
7	Nurobod MFY	0,94	149,7
8	Yakkachiqir MFY	0,94	149,7
9	Sayapir MFY	0,94	149,7
10	Saidlar MFY	0,94	149,7
11	Pastom MFY	0,94	149,7
12	Yo‘ldosh Oxunboboyev MFY	0,94	149,7
13	Shayxlar MFY	0,94	149,7
14	Yangi zamin MFY	0,94	149,7
Tuproqqal’a tumani olis hududlari			
15	Nukus MFY	0,70	111,5
16	Sarimoy QFY	0,70	111,5
17	Tuproqqal’a maskani MFY	0,70	111,5
18	Hazorasp MFY	0,70	111,5